



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 311 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlarlari	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlio'Imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	240
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi muammolar va ularga innovatsion yondashuv	244
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi	
O'zbekiston xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos jihatlari	247
O'razboyeva Farangiz Quadrat qizi, Ametov Quvandik Mamatjanovich	
The role of profitability in evaluating enterprise performance	251
Kholiqulov A.N., Khlomurodova S.A.	



Yaponiyada demografik muammo va uning iqtisodiyotga ta'siri.....	256
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribalari.....	262
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna, Otamuratova Dilnoza Dilmurod qizi	
Sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarining tahlili.....	265
Islomov Shuhrat Marufjonovich, Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich	
Talabalarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda Pareto qoidasini tadbqiq etishning muhim hususiyatlari.....	272
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, Asqarov Abrorjon Xayitmirzayevich	
Sanoat siyosatining nazariy va empirik asoslari.....	277
Sobirxo'jayev Xadyatillo, Hashimov P.Z.	
Yashil iqtisodiyot sharoitida energiya samaradorligining milliy iqtisodiyotga ta'siri.....	284
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Yashil biznes: Muqarrar kelajak va yangi imkoniyatlar.....	290
Shirinxon Axmadova, Xaydarov Nomozali Xolmirzayevich	
Katta ma'lumotlar tahlili va ularni biznes qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish.....	296
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Startaplar uchun marketing strategiyalari: Bozor tahlilidan brendgacha.....	301
Qodirov Sardor Qosimjonovich	
O'zbekiston sharoitida zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	305
Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiyeovich	



O'ZBEKISTON SHAROITIDA ZAMONAVIY ISHLAB CHIQUVNI BOSHQARISHDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI



Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti, ishlab chiqarishda
boshqaruv fakulteti, raqamli iqtisodiyot yo'nalishi talabasi
Elektron pochta: durdonaxon.studies@gmail.com
ORCID: 0009-0005-8762-7133



Ilmiy rahbar:

Ismanov Ibrohim Nabiyeovich

Farg'ona davlat texnika universiteti,
iqtisod fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida zamonaviy ishlab chiqarish sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarining tatbiq etilishi va boshqaruvdagi o'rmini tadqiq etadi. 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinganidan so'ng bu sohaga bo'lgan e'tibor yanada ortdi. Tadqiqot davomida 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, aylanma iqtisodiyot modellarining joriy etilishi va barqaror rivojlanish strategiyalarining O'zbekiston sanoatiga ta'siri tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi va xalqaro bozorlarga kirishni osonlashtiradi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, O'zbekiston sanoati, barqaror ishlab chiqarish, aylanma iqtisodiyot, eko-samaradorlik, yashil texnologiyalar, resurs tejamkorligi, atrof-muhit menejmenti, ishlab chiqarish boshqaruvi.

Abstract: This article examines the implementation of green economy principles in the modern production sector of the Republic of Uzbekistan and their role in management. After the declaration of 2025 as the "Year of Environmental Protection and Green Economy," attention to this area has increased even more. During the study, the reforms being implemented within the framework of the program for the transition of the Republic of Uzbekistan to a green economy until 2030, the introduction of circular economy models, and the impact of sustainable development strategies on the industry of Uzbekistan were analyzed. The results show that the application of the principles of a green economy, along with increasing the economic efficiency of manufacturing enterprises in Uzbekistan, will reduce the negative impact on the environment and facilitate access to international markets.

Key words: Green economy, industry of Uzbekistan, sustainable production, circular economy, eco-efficiency, green technologies, resource conservation, environmental management, production management.



Аннотация: Данная статья исследует внедрение принципов зеленой экономики в современном производстве и ее роль в управлении в Республике Узбекистан. После того, как 2025 год был объявлен "Годом охраны окружающей среды и зеленой экономики," внимание к этой сфере еще больше возросло. В ходе исследования были проанализированы реформы, проводимые в рамках программы перехода Республики Узбекистан к зеленой экономике до 2030 года, внедрение моделей циркулярной экономики и влияние стратегий устойчивого развития на промышленность Узбекистана. Результаты показывают, что применение принципов зеленой экономики, наряду с повышением экономической эффективности производственных предприятий Узбекистана, снижает негативное воздействие на окружающую среду и облегчает выход на международные рынки.

Ключевые слова: Зеленая экономика, промышленность Узбекистана, устойчивое производство, оборотная экономика, экологическая эффективность, зеленые технологии, ресурсосбережение, управление окружающей средой, управление производством.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan, atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyotdir. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, biroq asosan siyosiy termin sifatida qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi bu sohaga bo'lgan davlat e'tiborining yangi bosqichini belgiladi.

2024-yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti real ko'rsatkichda 2023-yilga nisbatan 6,5 foizga oshib, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishda barqaror sur'atlarni ta'minlamogda. Biroq, bu o'sishning barqarorligi va atrof-muhitga ta'siri masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmogda. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish dasturi doirasida belgilangan maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish.

Energiya va energiya resurslari har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasi va aholisi farovonligini belgilaydigan muhim omillardan biridir. Soha mutaxassislari va olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda aniqlangan tabiiy yoqilg'i-energiya resurslari (tabiiy gaz, neft) 60–150-yil davomida foydalanishga yetadi. Shu sababli ko'plab davlatlarda energiya xavfsizligini ta'minlash va energiya samaradorligini oshirish siyosati qo'llanmogda.

O'zbekiston ishlab chiqarish sanoatida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy zarurat ham hisoblanadi. Prezident ta'kidlaganidek, yashil iqtisodiyot bo'yicha to'qimachilik sohasida Yevropa davlatlariga mahsulot sotilganda, ular qaysi energiya manbalarida ishlab chiqarilgani haqida so'raydilar. Bu esa eksport mahsulotlari uchun yashil standartlarning muhimligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot tamoyillarining zamonaviy ishlab chiqarishda tatbiqi davlat siyosati va strategik rejalashtirish, issiqxona gazlari ajratmalarini 35 foizga kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 15 GVt ga oshirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini kengaytirish va energiya sektorida tub o'zgarishlarni amalga oshirish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston shamol, quyosh va gidroenergetika bo'yicha muhim yutuqlarga erishmogda. Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya loyihalari jadal sur'atda amalga oshirilmogda: shamol elektr stansiyalari qurilishi, quyosh elektr stansiyalari uskunalarini o'rnatish, gidroelektr stansiyalarini modernizatsiya qilish kabi loyihalar keng yoyilmogda.

O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqarish korxonalarida yashil texnologiyalar faol joriy etilmogda. Energiya samaradorligini oshirish maqsadida energiya tejankor uskunalar o'rnatilmogda, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari yaratilmogda, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish va qayta foydalanish mexanizmlari yo'lga qo'yilmogda. Bundan tashqari, suv resurslarini tejashga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalar qo'llanmogda, atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarni kamaytirish uchun ilg'or filtrlash tizimlari keng joriy etilmogda.

To'qimachilik sanoati eksport yo'nalishidagi asosiy sohalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa Yevropa davlatlariga mahsulot yetkazib berishda yashil iqtisodiyot tamoyillariga amal qilish zarurati kuchaymogda. Shu bois mamlakatimizda organik paxta yetishtirish, ekologik xavfsiz bo'yoqlarni qo'llash va ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni keng tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmogda.

Aylanma iqtisodiyot prinsiplaridan biri bo'lgan "3R" (iste'molni kamaytirish, qayta foydalanish va qayta ishlash) O'zbekiston sanoatining turli tarmoqlarida faol ravishda qo'llanmogda. Bu orqali sanoat korxonalarida xomashyo va energiya resurslaridan foydalanish optimallashtirilmogda, mahsulot va uning tarkibiy qismlarining



xizmat muddati uzaytirilmoqda. Sanoat chiqindilarini qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar faoliyati ham kengayib bormoqda.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha moliyaviy mexanizmlar ham faol joriy etilmoqda. Xususan, yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratilmoqda, soliqliq imtiyozlari berilmoqda, ayrim to'lovlardan ozod qilish choralari ko'rilmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan kafolatlar berish amaliyoti ham keng qo'llanmoqda.

Suv tejovchi texnologiyalar markazini tashkil etish va o'simliklarning genetik resurslari bankini yaratish kabi loyihalar Markaziy Osiyoda yashil rivojlanishda O'zbekistonning etakchi o'rin egallashiga zamin yaratmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va barqaror ishlab chiqarish sohasidagi tadqiqotlar so'nggi yillarda faol rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan bir qator strategik hujjatlar va tizimlar tasdiqlandi. Xususan, 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishini va yashil o'sishni ta'minlashga qaratilgan Dastur qabul qilindi. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish va energiya samaradorligini oshirishga oid Konsepsiya ishlab chiqildi. Shuningdek, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish va barqaror o'sishni ta'minlash uchun 2030-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi Harakatlar rejasini ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, 2022–2026-yillar davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning energiya sig'imini 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga mo'ljallangan iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejash bo'yicha aniq maqsadli parametrlari ham belgilandi. O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish choralari muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash tarkibi yangilandi, shuningdek, "Yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sish bo'yicha donorlarning muvofiqlashtirish guruhi" tasdiqlandi.

2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi ishlab chiqarishda energiya tejamoq texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va Orolbo'yi ekologik tanglik oqibatlarini bartaraf etish masalalarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston sanoatida yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha yashil texnologiyalarga investitsiyalarni rag'batlantirish hamda yashil budjet metodologiyasini joriy etish masalalari alohida o'rganilmoqda. Markaziy Osiyoning global iqlim muammolariga bag'ishlangan konferensiyada umumintaqaviy Yashil taraqqiyot konsepsiyasining taqdim etilishi O'zbekistonning mintaqaviy yashil rivojlanishdagi liderligini ko'rsatadi.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining hukumat hujjatlari, milliy va xalqaro statistika ma'lumotlari hamda mahalliy ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini chuqur tahlil qilishga asoslangan ikki bosqichli metodologiya asosida amalga oshirildi. Birinchi bosqich normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilishni o'z ichiga olib, bunda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga oid qonun va farmonlari, barqaror rivojlanish maqsadlari hamda strategiyalari, shuningdek, davlat dasturlari va loyihalari batafsil o'rganildi. Ikkinchi bosqich empirik tadqiqot bo'lib, mamlakatdagi sanoat korxonalarida yashil texnologiyalarning joriy etilishi holati tahlil qilindi. Bunda korxonalarning energiya samaradorligi va resurslarni tejash ko'rsatkichlari o'rganildi. Milliy statistika va tarmoq darajasidagi ma'lumotlarga asoslanib, mavjud vaziyat baholandi va tegishli xulosalar chiqarildi. Tadqiqot davomida hujjatlar tahlili, statistik usul, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Statistik tahlil uchun Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asos qilib olindi. O'zbekiston tajribasi mintaqaviy va xalqaro amaliyot bilan solishtirilib, mamlakatning o'ziga xos jihatlari aniqlab olindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun asosiy ma'lumot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, vazirlik va idoralar tomonidan chop etilgan rasmiy hisobotlar, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar, shuningdek, sanoat korxonalarining ichki hisobotlari va boshqa tarmoqqa oid ma'lumotlar xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot platformasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan. Mazkur platforma mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha asosiy omillardan biri hisoblanadi.[1]


Elektr energiyasini ishlab chiqarish va saqlashga investitsiyalar (million AQSh dollarida)

Legend:

- Quyosh energiyasi, shu jumladan saqlash
- Shamol energiyasi, shu jumladan saqlash
- Tabiiy gaz

Yil	Quyosh energiyasi, shu jumladan saqlash	Shamol energiyasi, shu jumladan saqlash	Tabiiy gaz
2020	~500	~1000	~1000
2021	~500	~1000	~1000
2022	~800	~100	~100
2023	~3500	~2500	~1000
2024	~800	~100	~2200

Xalqaro tenderlar tufayli O'zbekistonda yashil investitsiyalar, ya'ni qayta tiklanuvchi energiyaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, so'nggi 5 yil ichida sezilarli darajada oshdi va qazib olinadigan yoqilg'iga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan ancha yuqori ko'rsatkichga erishdi (2-rasm) [3].



Bugungi kunda dunyo bo'yicha yashil iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan Global yashil iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) hamda Yashil o'sish indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting ko'rsatkichlari keng qo'llanilmoqda. “Yashil” o'sish indeksi 4 ta maqsadli yo'nalish, 16 ta kategoriya hamda 36 ta indikatorlardan iborat. Ushbu indeksda boshqaruv va iqlim o'zgarishi (leadership & climate change), samaradorlik sektorlari (efficiency sectors), bozor va investitsiyalar (market & investment), atrof-muhit (environment) kabi 4 ta o'lchov kategoriyasi bo'yicha 130 dan ortiq davlatlar baholanadi.

Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar yuqori yashil o'sish ko'rsatkichlariga ega. Eng past natijalar esa Zimbabve, Jazoir, Nigeriya va Niger kabi Afrika mamlakatlarida qayd etilgan. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida esa Qirg'iziston ushbu reyting bo'yicha yuqori o'rinlarni egallagan.



O'zbekiston Osiyo davlatlari ichida 33-o'rinda qayd etilgan.[2] Mamlakatning mazkur indeksda "Ijtimoiy qamrov" (Social inclusion) hamda "Tabiiy kapital himoyasi" (Natural capital protection) ko'rsatkichlari nisbatan yaxshiroq bo'lsa, "Resurslardan samarali va barqaror foydalanish" (Efficient and sustainable resource use) hamda "Yashil iqtisodiy imkoniyatlar" (Green economic opportunities) yo'nalishidagi ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyati mavjudligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi axborot xizmati tomonidan ma'lum qilinmoqda.

Ushbularni hisobga olgan holda, Navoiy viloyatida ishga tushirilgan quvvati 100 megavatt bo'lgan zamonaviy quyosh fotoelektr stansiyasi nafaqat mamlakatimizda, balki butun Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Ushbu stansiya yiliga 252 million kilovatt-soat toza elektr energiyasi ishlab chiqarishga qodir bo'lib, natijada 80 million kub metr tabiiy gazni tejash va atrof-muhitga 160 ming tonna zararli issiqxona gazi chiqarilishining oldini olish imkonini beradi.[6]

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. 2025-yil «Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili» deb e'lon qilinishi mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tishning yangi bosqichini belgilaydi. Bu davlat siyosatining strategik ustuvorligi va uzoq muddatli rejalarning mavjudligini ko'rsatadi. O'zbekistonda 2024-yilda YIMning 6,5 foizga o'sishi yashil iqtisodiyot tamoyillariga o'tish bilan birga amalga oshirilmoqda. Bu iqtisodiy o'sish va ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtirish imkoniyatini tasdiqlaydi.

Yevropa bozorlari yashil standartlarni talab qilishi O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalari uchun yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy zaruriyatini ko'rsatadi. Bu nafaqat mahalliy ekologik muammolarni hal etadi, balki xalqaro bozorlarga kirishni ham osonlashtiradi. 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish dasturi va strategiyasi tizimli yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Energiya, sanoat, qishloq xo'jaligi va transport sohalarining birgalikdagi rivojlanishi sinergik samara yaratmoqda. O'zbekistonda yashil texnologiyalar joriy etilishi innovatsion rivojlanishni rag'batlantirmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejamliligi va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida yangi texnologiyalar sinab ko'rilmogda hamda ishlab chiqarishga joriy etilmogda. Markaziy Osiyoda yashil taraqqiyot konsepsiyasining taqdim etilishi O'zbekistonning mintaqada yashil rivojlanish lideri sifatidagi o'rnini mustahkamlamoqda. Bu xalqaro hamkorlik va investitsiyalar jalb qilish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, sanoat korxonalarida energiya auditini muntazam va majburiy tartibda o'tkazish zarur. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes subyektlariga yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy yengilliklar yaratish, jumladan, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarni tezlashtirish hamda yashil ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish lozim. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida yashil iqtisodiyot sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, xususan, Yevropa Ittifoqi hamda boshqa rivojlangan davlatlar bilan yashil texnologiyalar bo'yicha tajriba almashish va texnologiyalar transferini faol yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning yanada samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi ishlar tizimli tashkil etilsa, istiqbolda 2025–2030-yillarda energetika sektorida qayta tiklanuvchi energiya ulushi 25 foizga yetkazilishi, sanoatda yashil texnologiyalar asosida ishlaydigan korxonalar soni ikki barobar oshishi, yashil sertifikatga ega mahsulotlar eksporti 40 foizga ko'payishi, yashil loyihalarga investitsiyalar hajmi 10 milliard dollardan oshishi va yashil iqtisodiyot sohalarida 500 ming yangi ish o'ri yaratilishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot zamonaviy ishlab chiqarish boshqaruvining asosiy tamoyili va strategik rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan tizimli yondashuv, xalqaro bozorlar talablari va mahalliy ehtiyojlarning uyg'unlashishi O'zbekiston sanoatining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishi uchun mustahkam po'ydevor yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son Qarori. "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-6303230>
2. <https://ggindex-simtool.gggi.org/projects>
3. O'zbekiston Respublikasida 2024-yil natijalari bo'yicha jalb etilgan yashil investitsiyalar bo'yicha yillik hisobot.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son Qarori. "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". Retrieved from <https://lex.uz/docs/-4351738>
5. <https://www.imv.uz/media/prior/yashil.pdf> 2022-yil davomida amalga oshirilgan ishlar va 2023-yildagi ustuvor yo'nalishlar
6. Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р.,



Бесса С. и др. – UNEP / Grid-Arendal, 2011.

7. Pearce D., Markandya A., Barbier E. B. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan, UK, 1989. – 192 p.
8. Meyliev O. R. Nalogovye faktory ekonomicheskogo razvitiya regionov // Ekonomika i biznes: teoriya i praktika. – 2017. – №5. – С. 161–163.
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/27/karmana/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
